



ATOQLI OTLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARINING METODIKASI

Feruz Hakimova Shahrizabz davlat pedagogika
institute O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 1-kurs talabalabasi **Surayyo Mirzayeva**,
Shahrizabz davlat pedagogika institute o`qituvchisi

Annotatsiya: Kishilarning ismlari, familiyalari, otasining ismi, tahalluslar, laqablar, planeta va yulduzlarning nomlari, uy hayvonlari va qushlarga atab quyilgan nomlar, geografik nomlar, tashkilot va idora nomlari, gazeta va jurnal nomlari atoqli otlar sifatida o'rganiladi. Ushbu maqolada ham atoqli otlarning kelib chiqishi, shakllanishi, inson hayotidagi o'rni va yasalishi haqida ilmiy ma'lumotlar keltirildi.

Kalit so'zlar : Atoqli ot, turdosh ot, grammatik ko'rsatkichlar, ism, nomlar, mustaqil so'z.

Abstract: Names of people, surnames, patronymics, nicknames, names of planets and stars, names of pets and birds, geographical names, names of organizations and offices, names of newspapers and magazines are studied as proper nouns. In this article, scientific information about the origin, formation, place in human life and creation of famous horses was presented.

Key words: proper noun, relative noun, grammatical indicators, name, nouns, independent word.

Аннотация: В качестве имен собственных изучаются имена людей, фамилии, отчества, прозвища, названия планет и звезд, имена домашних животных и птиц, географические названия, названия организаций и учреждений, названия газет и журналов. В данной статье были даны научные сведения о происхождении, становлении, месте в жизни человека и сотворении знаменитых лошадей.

Ключевые слова: имя собственное, относительное имя, грамматические показатели, имя, имя существительное, самостоятельное слово.

Mustaqil so'z turkumlari oltita. Ot - mustaqil so'z turkumlaridan biri. Aniq predmetlarni yoki predmet sifatida tasavvur qilinadigan tushunchalarni ifodalaydigan otlar ma'nosiga



ko'ra, atoqli va turdosh otlarga bo'linadi. Bir xildagi predmet yoki hodisaning birini ajratib ko'rsatuvchi otlar atoqli otlar sanaladi. Masalan : Rustam, Anvar, Jomboy, Mars, Venera, Boychibor kabilar. Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomi turdosh otlardir : gul, daraxt, qalam, daftar kabi.

. Tilimizning lug'at zahirasida atoqli otlar ma'lum bir o'rinni egallaydi. Tilshunoslikda atoqli otlarni o'rganuvchi soha „ Onomastika “ (yunoncha „ nom qo'yish san'ati “) deb yuritiladi.

Atoqli otlar birlik shaklda keladi.

Ko'plik qo'shimchasini qabul qilsa, grammatik ko'plikni emas balki modal ma'nosini ifodalab keladi. Masalan : Gulnozalarining tashrifi bizni juda hursand qildi. Bu gapda

-lar qo'shimchasi orqali (mushtarak xususiyatga ega kishilar guruhi) (Gulnoza va singillari) ma'nosi ifodalangan. Ko'plik shakli orqali „ birgalikda“, „ birgalashgan holda “ ma'nolari ham ifodalanadi. Masalan : Madina, Shaxnoza, Shahlolar xonani tozalashdi. Bu gapda birgalik ma'nosi ifodalangan.

Dunyoda turli antroponimik tizimlar mavjud bo'lgan. Masalan, Qadimgi Rimda har bir erkak xos ismi oldidan keladigan nomga avloddan avlodga o'tadigan urug' nomiga ega bo'lgan, bu urug'ning shajarasini tavsiflagan.

Chaqaloq tug'ulgandan so'ng unga munosib ism qo'yish jarayoni bo'lib o'tadi, ism ota-ona va uydagi qariyalar tomonidan qo'yiladi. Islom dinining tarqalishi Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklarda bu din tushunchalari bilan bog'liq ismlarning ko'payishiga olib keldi. Xullas, har bir ism muayyan sabab bilan paydo bo'lib, o'zining tarixi, geografik tarqalishi, hududiga va o'z mazmuniga ega. Bolaning yetuk shaxs bo'lib yetishishi sog'lom bo'lishi, yashab ketishi, kelgusida baxtga erishishi ism bilan bog'liq bo'ladi deb hisoblashgan va bu udumlar saqlanib qolgan.

Folklordagi antroponimlar hozirgi kishi ismlaridan semantik - uslubiy jihatdan ancha farq qilib, ular o'tmish jamiyatning kundalik ijtimoiy va ma'naviy turmushi bilan o'zaro bog'liq holda kechgan. Masalan, o'tgan davrlarda ya'ni hozirgi ko'p katta yoshli kishilar ismlariga nazar tashlasak : Bolta, Tesha, O'roq kabi ismlarga duch kelamiz. Bu davrda ism yasalishiga e'tibor beraylik. To'liboy ismi bevosita chorvachilik bilan bog'liq. To'qli-urg'ochi qo'zi bo'lib, onasiga ergashib yuradigan qo'zilarga nisbatan aytiladi. Ismga qo'shilib



kelgan „boy“ elementi kishi ismining tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatadi. Bunday ismlarni qo'llanilishi badiiy adabiyotda obrazni ochib berishda qo'l keladi.

Atoqli otlar badiiy asarda ham obraz yaratish uchun muhim mazmuniy ta'sinchanligini kuchaytiruvchi shakliy va uslubiy zaruriy komponent sifatida qaralmog'i lozim. Badiiy asarda ham obrazlarga loyiq, mazmunan obrazni ochib beradigan ism tanlanadi. Asarlarda turli laqablar bilan birga birga simvolik xarakterdagi to'qima ismlar mifologik nomlar va turli xil onomosionimlar ham ko'p uchraydi. „Go'ro'g'li“ ismini eshitganda ham uning go'rda tug'ulganganligi ko'z o'ngida gavdalantirishimiz mumkin. Bunday asarlardan yana biri „Qiyomat qarz“. Bunda bosh qahramon Sarsonboy ota. Asar mazmuni va bu obraz hayotiga Sarsonboy ismi juda mos.

Ya'ni u omonatni qaytarish maqsadida juda sarson bo'ladi.

Necha yillar bozorda uni qidirib bora-bora sarson bo'ladi.

Ismlar ham yasaladi deb aytdik. Ismlar jinsiga xos nomlarni ifodalab qo'shimchalar bilan farqlanadi. Masalan, erkak jinsiga ko'ra: - bek, - jon va boshqalar. Ayol jinsiga ko'ra: - oy, - gul, - xon, - xol kabi elementlar orqali yasaladi. Shunday ismlar borki aynan shu grammatik ko'rsatkichlar orqali jinsni farqlash mumkin. Masalan: „Sevinch“ ismi aytilganda ayrimlar qiz yoki ayrimlar o'g'il bolani ko'z o'ngida shakllantiradi. Unga grammatik ko'rsatkichlar qo'shib, ya'ni „Sevinchoy“ deyilganda ayol jinsidagi shaxs ko'z oldida gavdalanadi. „Sevinchbek“ da esa aksincha. Shu o'rinda ismlar mazmuniga ham to'xtalib o'tish darkor. Ismlar o'z-o'zidan qo'yilmaydi. Xuddiki, ismlar bilan shaxslarning hayoti bog'liq holda kechadi. Yoki kishilar ruhiy holatidan kelib chiqib tanlanadi. Masalan: „Sevinch“ - bir chaqaloq dunyoga kelganda juda xursand bo'lib sevinishganlari uchun qo'yishadi. Yoki, ko'p kutilgan farzandga „Umid“ yoki „Umida“

deb ism qo'yiladi. Yoki, ijtimoiy holatidan kelib chiqib, farzandlar ketma-ket vafot etaversa „Qo'ysintosh“ kabi ismlar qo'yiladi. To'rtinchi farzand qiz tug'ulsa unga „Robiya“ ismi qo'yiladi. Ismlar turli ma'nolarni anglatadi. Bunga misollar : Sabrina — sabr-toqatli, bardoshli, chidamli yengilmas, irodali, kuchli ; Ifora - hushbo'y ; Aylin - oying yorug'ligi ; Imona - tiriklik, barhayotlik ; Muxlisa - oqko'ngil qiz, xudojo'y, mo'mina qiz.

Ismlar turdosh otdan atoqli otga o'tishi bilan ham yasaladi. Tilshunoslikda atoqli otning turdosh otga o'tishini ma'no kengayishi deb baholash holatlari ham bor. Masalan, „



Rizamat “ (atoqli ot) - rizamat (mahalliy, xo'raki va mayizbop uzum navi) Rentgen ismli shaxs „, Rentgen“ deb atalgan aparat yaratib, o'z ismi bilan ataydi. Bu ma'noning kengayishi, ya'ni atoqli otni turdosh otga o'tishi.

Ma'no torayishi esa turdosh otning atoqli otga o'tishi bilan shakllanadi. Masalan : bolta (turdosh ot) —Bolta -(atoqli ot) ; lola (turdosh ot) —Lola -(atoqli ot) ;asal (turdosh ot) —Asal (atoqli ot).

Atoqli otlarning shunday xususiyatlari mavjud. Bu maqolada atoqli otlarning barchasi qamrab olindi deyolmaymiz, bunda faqat atoqli otlarning shaxs nomlariga qaratildi. Shaxs nomlarining kelib chiqishi, tarixi, shaklanishi,

grammatik ko'rsatkichlari badiiy asardagi o'rni haqida shaxsiy mulohazalar bildirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.O'zbek tili grammatikasi. 1-tom. T.: Fan, 1975
- 2.O'zbek tilining izohli lugati. T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. 2006.
- 3.Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. -T.: O'qituvchi, 1983.
- 4.O'zbek tilining izohli lugati. T., O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. 2008.